



BIR NECHA TIL DOIRASIDAGI ERKALASH LEKSEMALARINING USLUBIY MA'NOLARI

Zokirov Muxtorali Turdaliyevich

Farg'ona davlat universiteti professori,
filologiya fanlari nomzodi

Xolmamatova Sarvinoz Abduvali qizi

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13683229>

Annotatsiya. Mazkur maqolada qarindosh bo'lmagan tillardagi erkalash so'zlarining leksik sathi tadqiq etiladi. Erkalash so'zlari har bir xalqning madaniyati, yashash sharoiti va e'tiqodiga qarab farqlanadi. Maqolada ingliz, rus, o'zbek, turk va koreys tillaridagi erkalash so'zlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, ularning fonetik, morfologik va leksik usullar orqali shakllanishi o'rganiladi. Ushbu tadqiqot erkalash so'zlarining turli tillarda qanday o'zgarishlarga uchrashi va ularning umumiy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: erkalash so'zlari, leksik sath, tillar o'zaro ta'siri, fonetik usul, morfologik usul, leksik usul, tilshunoslik, qiyosiy tadqiqot

Abstract. This article investigates the lexical layer of terms of endearment in unrelated languages. Terms of endearment vary according to the culture, living conditions, and beliefs of each nation. The article analyzes terms of endearment in English, Russian, Uzbek, Turkish, and Korean languages, examining their unique features and the ways they are formed through phonetic, morphological, and lexical methods. This study aims to identify the changes these terms undergo in different languages and to determine their common characteristics.

Keywords: terms of endearment, lexical layer, language interaction, phonetic method, morphological method, lexical method, linguistics, comparative study.

Dunyodagi turli xil tillar qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarga bo'linadi. Bu tillar o'zaro leksik sathda, ya'ni so'z boyligida farq qiladi. Har bir tilda erkalash so'zlari o'zining o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar xalqning madaniyati, yashash sharoiti va e'tiqodiga bog'liq holda shakllanadi. Ushbu maqolada ingliz, rus, o'zbek, turk va koreys tillaridagi erkalash so'zlari tahlil qilinib, ularning turli tillarda qanday shakllangani va qanday usullar orqali ifoda etilgani o'rganiladi.

Asosiy qism





Statistik ma'lumotlarga qaraganda dunyoda tillar soni 7000 ga yaqin bo'lib, ular bugungi kunda u yoki bu darjada taraqqiy etib kelmoqda. Shu tillar o'zaro yaqinligiga ko'ra qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarga bo'linadi. Shunga ko'ra har bir tilda mavjud sathlar yo bir-biriga yaqin yoki bir-biridan uzoq bo'lishi mumkin. Biz quyida tahlilga tortmoqchi bo'lgan mavzu qarindosh bo'lmagan tillarning leksik sathida ko'rib chiqiladi.


Leksik sathda o'rganiluvchi erkalash so'zlari jimjimadorligi, yosh va jinsda farqlanishi hamda alohida stilistik ma'no kasb eta olishi bilan xarakterlidir. Erkalash so'zlari turli xalqlarda turlicha bo'lishi mumkin, bu esa til egalarining yashash sharoitidan, hududidan va e'tiqodidan kelib chiqadi. Biz buni oltita til doirasida solishtirish bilan o'z maqsadimizga erisha olamiz. Jahon tilshunoslari tomonidan turli tillarda erkalash ma'nosini ifoda etuvchi so'zlar, so'z birikmalari har xil tomondan o'rganilgan. Jumladan, R.Lakoff [1, 5-64], A.Kunin [6, 43-752], N.Nishiniadze[8] larning ilmiy tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tsa bo'ladi. A.Kunin o'zining ilmiy ishlarida ingiliz tilidagi erkalashni frazeologik sathda keng o'rgangan bo'lsa, Nishiniadze ingiliz, gruzin, va rus tillarida erkalash hamda kamsitish ma'nolariga morfologik nqtayi nazaridan yondashgan. Shunday ilmiy tadqiqot ishlari o'zbek tilshunosligida ham ma'lum darajada o'rganilganligini eslab o'tmaslikning iloji yo'q. Xusuan, R.Xadyatullayev [13], A. Po'latov [9, 333-346], O.Safarov [10, 3-65], Sh.Kazakov [5], kabi olimlarning ishlarida alohida e'tibor berilgan bo'lsa, J.Bo'ronov, O.Mo'minov, M.Rasulova, R.Qo'ng'urov va boshqa olimlar erkalash hamda kichraytirishni grammatik kategoriya sifatida tadqiq etib, ularni asosan suffikslar orqali yasalishi haqida to'xtalib o'tadilar. Dastlab erkalamoq terminini izohiga yuzlansak.

Erkalash terminiga turli manbalarda o'ziga xos izohlarni uchratish mumkin. Masalan, Vebster izohli lug'atida qayd etilishicha, erkalash (affection) – his-tuyg'u yoki his-hayajon, noziklik bilan tegish, suyish demakdir [2]

Roget's Thesaurus lug'atida erkalash termini – endearment, loving words, affectionate speyeches, pet name kabi sinonimik nomlarga ega [3, 888-889].

Rus tilidagi izohli lug'atlarda esa yuqorida keltirilgan lug'atlardan farqlangan holda erkalash terminiga rahmdillik qilish, ovutish, asrab-avaylashdir degan izoh keltirilgan [11, 593-594].

O'zbek tilining izohli lug'atida erkalash nafaqat mehr bilan suyish ekanligi, balki u paralingvistik vositalar, ya'ni tana harakati orqali ham ifoda etilishi mumkinligi ta'kidlab o'tiladi [12].





Bizningcha, erkalash – har bir tilning o'ziga xos vositalari, shakl-usullaridan foydalanib odamlarga, jonivorlarga, tabiatga, narsa-hodisalarga nisbatan mehribonlik, muhabbat, mayinlik, nafis mehr bilan suyish va sevish kabi munosabatlarni ifodalaydi.

Dunyo xalqlarida erkalash ma'nosi uch usulda hosil qilinadi. Jumladan, fonetik, leksik, morfologik usullar bularning eng faollari sanaladi.

Fonetik usul yordamida tillar doirasida bir-biridan farqli ravishda yo unlilar yo undoshlar cho'ziladi, yoki bir tovush o'rniga boshqalari qo'shib hosil qilinadi. Misol uchun ingliz tilida so'z oxiridagi undosh tovushlarning talaffuzda tushib qolishi bolalarni erkalashda keng qo'llaniladi (sugar-suga-shakarim; darling-darlin). Koreys tilida bo'lsa shaxs nomlari oxiriga ㅏ/ㅑ (a/ya) qo'shimchalarini qo'shib aytish farzandlarni suyib erkalash ma'nosini ifoda etadi. Ko'pincha ota-onalar bu tovushlarni yanada cho'zibroq talaffuz etadilar bu esa ularning o'ta kuchli mehr-muhabbatini bildiradi (Minho-Minhoya). O'zbek tilida bo'lsa so'z tarkibidagi tovushlar o'rnini boshqa tovush egallash orqali bola tiliga moslashganday so'zlar atayin o'zgartiriladi va bu esa erkalashning faol turidan biiriga aylanadi. Masalan, aylanayin-ananayin yoki ananay tarzida. Allalar va ovutmacholarda bo'lsa so'zning oxiriga o,a,yo tovushlari so'zlarga qo'shib cho'ziq talaffuz etilishi erkalash ma'nosini bildiradi.


Morfologik usul yordamida erkalash ma'nosini yasash ham faol turlardan biridir. O'zbek tilida 24 ta qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi. (-loq, -jon, -xon, -oy, -niso, -gina, (-kina, -qina), -cha, -choq, -chak, -chiq, -bib, -boy, -bek, -toy, -poshsha, -sho, -mirza, -qul, -gul, -bonu, -beka, -bekach, -im I shaxs birlikdagi egalik hamda -si suffikslari) Masalan, qizaloq, Gulsinbib, Murodjon.

Ingliz tilida erkalash suffikslari 9tadir (-kin, -les, -ling, -sy, -cy, -iye, -y, -ey, -o). Ular kichraytirishni ifodalash bilan birga erkalashni ham alohida ifoda etadi.

Turk tilida erkalash qo'shimchalaridan eng faoli -cıgım qo'shimchasidir. Masalan, anneciğim, Gözbebeğim - kòz qorachig'im.

Leksik usul deyarli barcha tillarda o'ta keng tarqalgan bo'lib, tildagi mavjud so'zlar xalqning yashash tarzi, diniy e'tiqodi va totemiga asosan paydo bo'lgan. Biz ularni tahlil qilish uchun guruhlashga tayanmoqchimiz.

1.Astronimlar bilan bog'liq erkalatmalar. Rus xalqi vakillari ko'pincha o'z bolasini солнышко (ты мое) - "quyoshim" tarzida erkalatadilar. Bu orqali ularga quyosh bebaho va qadrli ekanligi shuningdek sochlarining rangi ham quyosh nuriday yoreqin rangda ekanlarini mengzash mumkin. «солнце юности в зените», «солнце жизни моей» [7].





Qozoq xalqida quyosh leksemasi teskari ma'noni bildirib, dushman sifatida talqin qilinadi. Chunki ular qadimdan ko'chmanchi xalq bo'lganligi bois asosan kunduz kunlari yo'l bosishgan. Agarda kun isib ketsa ularga qiyinchilik tug'dirgan. Ular osmon jismlaridan ko'pincha "oy" leksemasini qo'llab erkalash ma'nosini hosil qiladilar. Masalan, «Кун жеді»; «кун шакты»; «баска кун туу» [7].

Har ikki til egalaridan farqli o'laroq o'zbek xalqi vakillari nutqida oy hamda quyosh leksemasi erkalash ma'nosida qo'llanila olishi bilan xarakterlidir.

2. Zoonimlar bilan bog'liq erkalatmalar. O'zbek xalqi nutqida bolani erkalashda uy hayvon nomlaridan keltirish ko'p uchraydi. Masalan, qo'zichoq, qulun, toychoq kabilar eng keng tarqalganlaridir. Bular asosan o'g'il farzandga nisbatan qo'llaniladi. Ingiliz tilida uy hayvon nomlari bilan bir qatorda parranda nomlari yordamida erkalash ma'nosi yasash mumkin. Jumladan, (calf-buzoq, lamb-qo'zichoq)

Koreys tilida kuchuk erkalash ma'nosida qo'llanila oladi. Bunda ular o'z farzandini kuchukdek g'ayratli, serharakat bo'lish maqsadida ishlatishadi.

O'zbek tilida it hamda kuchuk so'zlari orqali ko'pincha salbiy ma'noni hosil qilishda foydalanishadi. Masalan, -Bizning it qalay?-dedi yangi direktor.

-Bu itni taniyman, -dedi Tillayev. Berilgan dialogda it leksmasi orqali aslida hayvon emas yugurdak va soxta mulozamatni o'ziga kasb qilgan shaxs nazard tutilmoqda. [4]

3. Shaxs otlari bilan bog'liq erkalatmalar. Bu guruhdagi erkalash so'zlari asosan turkiy tillar oilasi tarkibiga kiruvchi tillarga bog'liqdir. Chunki bu guruh vakillari qonida azal-azaldan ota-bobolarga, umuman yoshi ulug'larga hamisha hurmat bilan qarashgan. Misol uchun, o'zbek tilida qizlarga nisbatan buvim, onam leksemalari o'g'il bolalarga bo'lsa dadam, bobom, bobotoy, bobojon leksemalarini qo'llash vodiy tomonda juda ko'p uchraydi. Turk tilida bo'lsa annem-onam deb erkalatish faqatgina ota-ona tomonidan emas, balki qizlar, dugonaar o'rtasida juda keng tarqalgan.

Xulosa

Erkalash so'zlari har bir xalqning o'ziga xos til boyligi va madaniyatining bir qismi hisoblanadi. Ularning fonetik, morfologik va leksik usullar orqali shakllanishi turli tillarda turlicha namoyon bo'ladi. Har bir tildagi erkalash so'zlari va ularning shakllanish usullarini qiyosiy tahlil qilish orqali turli tillarning leksik imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish va ularni yanada kengaytirish imkoni paydo bo'ladi. Mazkur maqolada o'rganilgan tillar





o'rtasidagi erkalash so'zlari leksik sathining qiyosiy tahlili tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lakoff R. Language and Womans's Place. – New York: Harper Colophon Books, 1975. – PP. 5-64.
2. Merriam W. Merriam Webster's Collegiate Dictionary. Eleventh Edition, – Massachusetts, USA: Incorporated Springfield, 2003. – 21 p.
3. Roget's Thesaurus of English Words and Phrases (105th Anniversary Eddition). – London: The Penguin Press, 2002. – PP. 888-889
4. Said Ahmad 'Qoplon" hikoyas
5. Казаков Ш. Семантико-стилистические особенности эмоционально-оценочной лексики драм Хамзы: Дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, ИЯиЛ им. А.С. Пушкина, 1990. – 160 с
6. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – М.: Русский язык, 1984. – С. 43-752
7. Леонова Д.Ф. Ласковое обращение в казахском и русском языках. // Филология и литературоведение. 2011. № 3 [Электронный ресурс]. URL: <https://philology.snauka.ru/2011/12/59> (дата обращения: 25.08.2024).
8. Нишиниадзе Н.Ш. Ономасиологические исследование выражения категории ласкательности и уничтожительности суффиксальными производными: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Тбилиси: ТибГУ, 1986. – 21 с.
9. Пулатов А.К. Английский язык. – Т.: ШАРҚ, 1998. – С. 333-346.
10. Сафаров О. Болаларни эркаловчи қўшиқ. – Т.: Фан, 1983. – Б. 3-65.
11. Словарь русского языка. В 4-х т. (издание второе). – М.: Русский язык, 1984. Т. 4. – С. 593-594.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдли. – М.: Русский язык, 1981. Ж. 2. – 450 б.
13. Хадятуллаев Р.Р. Соотносительность морфологических средств выражения категории субъективной оценки имен существительных в русском и узбекском языках: Дис. ...канд. филол. наук. – Орёл: ОГПИ, 1969. – 235 с

